ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 348 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar..... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash..... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari..... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YINGA ASOSLANGAN TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni tashkil etish va takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti hamda sohadagi boshqa me'yoriy hujjatlarning o'yinga asoslangan ta'limni rivojlantirishdagi o'rni ochib berilgan. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tabiiy pedagogik mexanizm sifatida asoslangan. Amaldagi huquqiy normalarni tizimlashtirish asosida o'yinga asoslangan ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yinga asoslangan ta'lim, o'yinli ta'lim faoliyati, davlat standarti, rivojlantiruvchi muhit, bola shaxsi, kompetensiya, innovatsion pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, me'yoriy-huquqiy asos.

Abstract: The article analyzes, from a scientific and pedagogical perspective, the regulatory and legal foundations for organizing and improving play-based learning in preschool education in the Republic of Uzbekistan. It examines the role of the Law "On Preschool Education and Upbringing", the Concept for the Development of the Preschool Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030, the State Standard for Preschool Education and Upbringing, and other regulatory documents. Play is substantiated as a natural pedagogical mechanism for developing preschool children's socio-emotional, communicative, cognitive, and creative competencies. Based on a systematization of the current legal provisions, scientific and practical proposals are formulated for further improving play-based learning.

Key words: preschool education, play-based learning, play-based educational activity, state standard, developmental environment, child personality, competence, innovative pedagogical technologies, quality of education, regulatory and legal framework.

Аннотация: В статье с научно-педагогических позиций анализируются нормативно-правовые основы организации и совершенствования обучения, основанного на игре, в системе дошкольного образования Республики Узбекистан. Раскрывается значение Закона Республики Узбекистан "О дошкольном образовании и воспитании", Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года, Государственного стандарта дошкольного образования и воспитания и иных нормативных документов. Игра обосновывается как естественный педагогический механизм развития социально-эмоциональных, коммуникативных, познавательных и творческих компетенций ребенка дошкольного возраста. На основе систематизации действующих правовых норм сформулированы научно-практические предложения по дальнейшему совершенствованию игрового обучения.

Ключевые слова: дошкольное образование, обучение на основе игры, игровая образовательная деятельность, государственный стандарт, развивающая среда, личность ребенка, компетенция, инновационные педагогические технологии, качество образования, нормативно-правовая основа.

KIRISH

Jahon pedagogikasida maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirishda o'yin faqat dam olish yoki bo'sh vaqtni tashkil etish vositasi sifatida emas, balki bolaning tabiiy faoliyati va ta'lim olishining muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Bola o'yin jarayonida atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, tengdoshlari bilan munosabatga kirishadi, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal etish va ijodiy fikrlash tajribasini egallaydi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan maktabgacha ta’lim islohotlarida ham ta’lim jarayonini bolaning yoshi, individual xususiyatlari, qiziqishlari va faolligiga mos tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda. Shu ma’noda, “Maktabgacha ta’limda o‘yinga asoslangan ta’limni takomillashtirish” muammosi nafaqat pedagogik, balki me’yoriy-huquqiy jihatdan ham tadqiq etilishi lozim bo‘lgan ilmiy yo‘nalishdir.

Amaldagi qonunchilikda “o‘yinga asoslangan ta’lim” atamasi har doim ham mustaqil huquqiy kategoriya sifatida qo‘llanilmaydi. Biroq bolaga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsiy yondashuv, o‘yinli ta’lim faoliyati, mustaqil o‘yin, rivojlantiruvchi muhit, innovatsion pedagogik texnologiyalar va o‘yin vositalariga doir normalar majmuasi ushbu yondashuvning huquqiy-pedagogik poydevorini shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘yinga Asoslangan Ta’limning Ilmiy-Pedagogik Talqini

O‘yinga asoslangan ta’limning nazariy asoslarini chuqurlashtirishda klassik va zamonaviy psixologiya-pedagogika maktablarining qarashlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim. Fridrix Frebel maktabgacha ta’limni bolaning tabiiy faolligiga mos tashkil etish g‘oyasini ilgari surib, o‘yin, tabiat, harakat va konstruktiv materiallarni bola rivojlanishining bir butun muhiti sifatida ko‘rgan.[1]

Jan Piaje kognitiv rivojlanish nazariyasida bolani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muhit bilan faol munosabat orqali bilimni konstruksiya qiluvchi subyekt sifatida talqin qiladi. Bu nuqtai nazardan ramziy o‘yin, predmetlarning o‘rnini bosuvchi belgilardan foydalanish, tasniflash, taqqoslash va qoidalarni o‘zlashtirish bolaning fikrlash tuzilmalarini rivojlantiradi.[2]

L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi o‘yinni bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytiruvchi mexanizm sifatida tushunish imkonini beradi. O‘yinda bola o‘zining kundalik imkoniyatidan yuqoriroq darajada harakat qilishi, rol va qoidaga bo‘ysunishi, tengdoshi bilan kelishishi, ramziy vaziyatni saqlashi va nutq orqali o‘z harakatini boshqarishi mumkin.[3]

A.N. Leontyev va D.B. Elkoninning faoliyat nazariyasida syujetli-rolli o‘yin maktabgacha yoshdagi yetakchi faoliyat sifatida talqin qilinib, unda bola kattalar dunyosidagi ijtimoiy munosabatlar, kasbiy rollar, qoidalar va motivlarni modellashtiradi. Bu yondashuv o‘yinga asoslangan ta’limda ijtimoiy syujetlarning pedagogik qiymatini asoslaydi.[4]

Zamonaviy tadqiqotlarda o‘yin va akademik ta’limni bir-biriga qarshi qo‘ymaslik tendensiyasi kuchaygan. A. Payl, K. Deluka va E. Denniels 168 ta ilmiy ishni qamrab olgan obzorda erkin o‘yinning ijtimoiy-emotsional va umumiy rivojlanishdagi, pedagog ishtirokidagi o‘yinning esa ayrim akademik natijalardagi imkoniyatlarini ko‘rsatib, turli o‘yin shakllarini integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.[5]

D.S. Vaysberg, K. Xirsh-Pasek va R.M. Golinkoff tomonidan ishlab chiqilgan “guided play” - yo‘naltirilgan o‘yin konsepsiyasi mazkur integratsiyaning amaliy modeli hisoblanadi. Unda pedagog ta’limiy maqsad va muhitni rejalashtiradi, ammo bolaning tanlovi, faolligi va kashf etish huquqini saqlaydi. Shu sababli pedagogning roli tayyor javobni berish emas, bolaning fikrlashini ochiq savol, ishora, material yoki muammoli vaziyat bilan chuqurlashtirishdan iborat.[6]

UNICEF va LEGO Foundationning erta bolalik ta’limiga oid tahliliy materiallarida ham o‘yin orqali o‘rganish bolaning faol ishtiroki, ma’noli tajriba, ijtimoiy hamkorlik, quvonch va takroriy sinovlar orqali bilimni mustahkamlash bilan bog‘lanadi. Bu xususiyatlar o‘yinga asoslangan ta’limni oddiy “qiziqarli mashg‘ulot”dan farqlaydi.[7]

Mahalliy olimlar qarashlarida o‘yin faoliyati

O‘zbekiston maktabgacha pedagogika maktabida ham o‘yin bolaning yetakchi faoliyati sifatida izchil talqin qilingan. F.R. Qodirova va hammualliflar harakatli o‘yinlar bolaning harakatlari va makonda yo‘l topishini, birgalikdagi o‘yinlar esa munosabatlarni anglash, harakatlarni muvofiqlashtirish va atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni kengaytirishini ta’kidlaydi.[8]

1 Froebel F. The Education of Man. New York: D. Appleton and Company, 1887; shuningdek, Play-based learning: Evidence-based research to improve kindergarten practice. University of Victoria repository, 2024.
2 Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: W.W. Norton & Company, 1962; Pyle A., DeLuca C., Danniels E. Review of Education. 2017;5(3):311–351.
3 Vygotsky L.S. Play and its role in the mental development of the child. Voprosy psikhologii. 1966. No. 6. pp. 62–76; shuningdek, University of Victoria repository, 2024.
4 Azamatova D.Sh. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining turlari. Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2024.
5 Pyle A., DeLuca C., Danniels E. A scoping review of research on play-based pedagogies in kindergarten education. Review of Education. 2017;5(3):311–351. DOI: 10.1002/rev3.3097.
6 Weisberg D.S., Hirsh-Pasek K., Golinkoff R.M. Guided Play: Where Curricular Goals Meet a Playful Pedagogy. Mind, Brain, and Education. 2013;7(2):104–112. DOI: 10.1111/mbe.12015.
7 UNICEF & The LEGO Foundation. Learning through play: Strengthening learning through play in early childhood education programmes. UNICEF, 2018.
8 Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2019.

Sh.A. Sodiqovaning maktabgacha pedagogikaga oid ishlarida o‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati va ta’lim-tarbiya vazifalarini bola yoshiga mos amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv milliy pedagogikada o‘yinning tarbiyaviy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy vazifalarini bir butun holda ko‘rish an’anasi mavjudligini ko‘rsatadi.[9]

So‘nggi mahalliy tadqiqotlarda didaktik, harakatli, rolli va ijodiy o‘yinlardan samarali foydalanish bolaning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilishi, o‘yin jarayonida muloqot va mustaqil fikrlash rivojlanishi qayd etilmoqda.[10]

Milliy va harakatli o‘yinlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston tajribasi bo‘yicha empirik tadqiqotlarda o‘yinlarning jismoniy faollikni oshirish, jamoada ishlash va madaniy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan. Bu natijalar milliy o‘yinlarni zamonaviy play-based learning modeliga integratsiya qilish uchun asos bo‘la oladi.[11]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta’limda o‘yinga asoslangan ta’limning me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganishda hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda davlat standartidagi talablar o‘zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida huquqiy me’yorlar va pedagogik tamoyillar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Olingan natijalar umumlashtirilib, o‘yinga asoslangan ta’limni takomillashtirish bo‘yicha takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun - fundamental huquqiy asos

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni maktabgacha ta’lim sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi bazaviy huquqiy hujjat hisoblanadi.[12]

Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish hamda umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida belgilanadi.[13]

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari qatorida har bir bolaning iste’dodi, ishtiyoqi va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun teng sharoit yaratish, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy yondashuv nazarda tutilgan.[14]

Mazkur normalar o‘yinga asoslangan ta’lim uchun prinsipial ahamiyatga ega. Chunki o‘yinli pedagogik jarayonda bola tayyor bilimni qabul qiluvchi passiv subyekt emas, balki faoliyatni tanlovchi, sinab ko‘ruvchi, muloqot qiluvchi, xato qiluvchi va yangi yechim topuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Qonunda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti hamda davlat ta’lim dasturining huquqiy maqomi ham belgilangan.[15]

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida innovatsion pedagogik yondashuvlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan.[16]

Konsepsiyada maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.[17]

9 Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. To‘ldirilgan qayta nashr. Toshkent: TDPU, 2017.
10 Utayeva L.O., Safarova M.E., G‘aybulloyeva F.F., Ortiqboyeva J.O. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2025.
11 Qurbonov N., Abirov J., G‘aniyev S. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan milliy va harakatli o‘yinlar: O‘zbekiston tajribasi. 2025. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdpp.77504.
12 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 3, 4, 28–29-moddalar.
13 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 3, 4, 28–29-moddalar.
14 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 3, 4, 28–29-moddalar.
15 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 3, 4, 28–29-moddalar.
16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va qarorga 1-ilova.
17 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va qarorga 1-ilova.

Ushbu strategik yondashuv o'yinga asoslangan ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida ilmiy-metodik jihatdan rivojlantirishga huquqiy zamin yaratadi. Bunda takomillashtirish faqat yangi o'yinlarni joriy etish bilan cheklanmasdan, pedagogning roli, ta'lim muhiti, bolaning tanlov imkoniyati, o'yin materiallari va pedagogik kuzatuv mexanizmlarini kompleks ravishda yangilashni nazarda tutadi.

Davlat standartida o'yinga asoslangan ta'limning o'rni

O'yinga asoslangan ta'limning bevosita me'yoriy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida ifodalangan.[18]

Davlat standarti maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va sifatiga, bolalarning rivojlanishiga, ta'lim muhiti hamda tashkilotlarni jihozlashga nisbatan talablarni belgilaydi. Bu talablar o'yinni bolaning ijtimoiylashuvi, muloqoti, hamkorligi va mustaqil faoliyati bilan bog'laydi.

Standartda kun tartibini tashkil etishda o'yin-ta'lim faoliyati va mustaqil o'yin faoliyati alohida komponentlar sifatida nazarda tutilgan; bu o'yinning ta'lim jarayonidagi mustaqil pedagogik ahamiyatini ko'rsatadi.[19]

Qisqa muddatli guruhlarning namunaviy kun tartibida ham "o'yinli ta'lim faoliyati", "o'yin, mustaqil mashg'ulotlar, loyihaviy faoliyat" kabi shakllar ajratilgan.[20]

Davlat standarti maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa rivojlantiruvchi vositalar bilan ta'minlashga oid me'yorlarni ham belgilaydi.[21]

Bu holat o'yinga asoslangan ta'lim uchun rivojlantiruvchi muhit yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotining ixtiyoriy qo'shimcha faoliyati emas, balki ta'lim sifatining moddiy-pedagogik sharti ekanini ko'rsatadi. Shu bois o'yin markazlarining mavjudligi bilan cheklanmasdan, ular bola tashabbusini qo'llab-quvvatlashi, materiallarni mustaqil tanlash, syujetni o'zgartirish va turli kompetensiyalarni integratsiyalash imkonini berishi lozim.

O'yinga asoslangan ta'limning huquqiy-pedagogik modeli

Tahlil qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida o'yinga asoslangan ta'limning huquqiy-pedagogik modelini quyidagi mantiqiy zanjir orqali ifodalash mumkin: bola huquqlari va manfaatlari → shaxsga yo'naltirilgan yondashuv → rivojlantiruvchi muhit → o'yinli ta'lim faoliyati → mustaqil tanlov va faollik → ijtimoiy, kommunikativ, kognitiv va ijodiy kompetensiyalar → maktab ta'limiga tayyorlik.

Mazkur model o'yinga asoslangan ta'limning huquqiy asoslari bitta hujjat yoki bitta norma bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. U qonun, strategik konsepsiya, davlat standarti, davlat ta'lim dasturi va metodik ta'minot o'rtasidagi uzviylikka tayanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni rivojlantirish uchun tizimli me'yoriy-huquqiy asos shakllangan. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun bola shaxsini rivojlantirish va shaxsiy yondashuvni ta'minlashning fundamental prinsiplarini belgilaydi. 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni strategik vazifa sifatida belgilaydi. Davlat standarti esa o'yinli ta'lim faoliyati, mustaqil o'yin va rivojlantiruvchi muhitni ta'lim jarayonining amaliy tarkibiy qismi sifatida mustahkamlaydi.

Shuning uchun o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning keyingi bosqichi mavjud huquqiy normalarni yagona pedagogik konsepsiya doirasida tizimlashtirish, sifat mezonlarini ishlab chiqish va pedagoglarning tegishli kasbiy kompetensiyalarini kuchaytirish bilan bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiq.

Mavjud me'yoriy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar

Birinchidan, me'yoriy va metodik hujjatlarda "o'yinga asoslangan ta'lim" tushunchasining yagona pedagogik ta'rifini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu "o'yin", "o'yinli ta'lim faoliyati", "mustaqil o'yin" va "o'yin texnologiyasi" tushunchalarini metodologik jihatdan farqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, davlat ta'lim dasturlarida pedagog boshqaradigan o'yin va bola tashabbusiga asoslangan erkin o'yin o'rtasidagi maqbul nisbatni ilmiy asoslash zarur.

Uchinchidan, o'yinga asoslangan ta'lim sifatini baholash uchun alohida indikatorlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda o'yinchoqlar soni emas, balki bolaning tanlov erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi, hamkorligi, muammoni hal etishi va pedagogning fasilitatorlik faoliyati baholanishi lozim.

18 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori; Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.

19 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori; Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.

20 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori; Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.

21 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori; Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti.

To‘rtinchidan, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida o‘yinga asoslangan ta’limni rejalashtirish, pedagogik kuzatuv, o‘yin muhitini loyihalash va bolaning o‘yiniga to‘g‘ri pedagogik aralashuv kompetensiyalarini alohida modul sifatida kuchaytirish zarur.

Beshinchidan, milliy o‘yinlar va zamonaviy o‘yinga asoslangan pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish bo‘yicha metodik mezonlar ishlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son22 “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ), 3, 4, 28–29-moddalar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son23 “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va qarorga 1-ilova.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son24 “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori; Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti.
4. Froebel F. The Education of Man. New York: D. Appleton and Company, 1887; shuningdek, Play-based learning: Evidence-based research to improve kindergarten practice. University of Victoria repository, 2024.
5. Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: W.W. Norton & Company, 1962; Pyle A., DeLuca C., Danniels E. Review of Education. 2017;5(3):311–351.
6. Vygotsky L.S. Play and its role in the mental development of the child. Voprosy psikhologii. 1966. No. 6. pp. 62–76; shuningdek, University of Victoria repository, 2024.
7. Azamatova D.Sh. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining turlari. Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 2024.
8. Pyle A., DeLuca C., Danniels E. A scoping review of research on play-based pedagogies in kindergarten education. Review of Education. 2017;5(3):311–351. DOI: 10.1002/rev3.3097.
9. Weisberg D.S., Hirsh-Pasek K., Golinkoff R.M. Guided Play: Where Curricular Goals Meet a Playful Pedagogy. Mind, Brain, and Education. 2013;7(2):104–112. DOI: 10.1111/mbe.12015.
10. UNICEF & The LEGO Foundation. Learning through play: Strengthening learning through play in early childhood education programmes. UNICEF, 2018.
11. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2019.
12. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. To‘ldirilgan qayta nashr. Toshkent: TDPU, 2017.
13. Utayeva L.O., Safarova M.E., G‘aybulloyeva F.F., Ortiqboyeva J.O. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyati. Pedagogik tadqiqotlar jurnali, 2025.
14. Qurbonov N., Abirov J., G‘aniyev S. Maktabgacha ta’lim muassasalarida va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan milliy va harakatli o‘yinlar: O‘zbekiston tajribasi. 2025. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.zdpp.77504.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF–19-son25 “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni; “Bola, o‘yin va pedagog” loyihasi haqida rasmiy axborot (2026); O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017, 2020 va 2022-yillardagi maktabgacha ta’limga oid nutq va Murojaatnomalari.

22 https://lex.uz/uz/docs/-4646908
23 https://lex.uz/ru/docs/-4327235
24 https://lex.uz/docs/-5179335
25 https://lex.uz/uz/docs/-8037353

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.